

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“NASOYIM UL-MUHABBAT”DA XOS VA AVOM TALQINI

Shahnoza Rahmonova

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori

instituti kichik ilmiy xodimi

E-mail: shakhnozarakahmanova0282@gmail.com

Annatsiya: *Mazkur maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan “xos” va “avom”, ularning mushtarakligi va farqli jihatlari xususida bahs yuritilgan. Bu, ayniqsa, uning Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasidagi hikoyatlarda keltirilgan ulug‘ zotlarning fikrlari misolida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *xos, avom, tasavvuf, tariqat, haqiqat, haq, muhabbat, ishq, nafs, sabr, riyozat.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются трактовки «необыкновенных людей» и «обычных людей», используемые великим поэтом-мыслителем Алишером Навои, а также различия и сходства между ними. Особенно это раскрывается на примере мыслей и взглядов великих людей, упомянутых в рассказах, содержащихся в «Насаим уль-Мухаббат».*

Ключевые слова: *необыкновенный, народ, тасаввуф, тарикат, истина, любовь, возжеление, терпение, испытания.*

Annotation: *This article examines the interpretations of “extraordinary people” and “ordinary people” used by the great poet-thinker Alisher Navoi, as well as the differences and similarities between them. This is especially revealed in the example of the thoughts and views of great people mentioned in the stories contained in Nasaim ul-Mukhabbat.*

Key words: *extraordinary, people, tasavvuf, tarikat, truth, love, desire, patience, test.*

Ma'lumki, ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub “Nafahot ul-uns min hazarot il-quds” tazkirasi ta'sirida yaratilgan. Unda tasavvuf tariqati qoidalari, ulug' mutasavviflar, shayxlarning hayot tarzi, jamiyat taraqqiyoti va bashariyat kamoloti uchun qilgan xizmatlari jonli va ta'sirchan yoritilgan. Mazkur tazkira – Imom A'zam, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Hakim Termiziy, Bahouddin Naqshband singari tasavvuf ahlining ko'zga ko'ringan vakillari faoliyatiga oid qimmatli ma'lumotlarni o'zida mujassam etgani bilan ham o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi.

Kitobning “*Bu toifaning a'mol-u af'ol va muomilot-u riyozati*” bobida tavba, “luqma hilliyati”, shariat rioyati va tariqat odobiga ham izohlar berilgan. Ayniqsa, shariat rioyati va tariqat odobiga tegishli “hilm” va “burdborlig’”, rizo, sabr, sidq, azim riyozatga oid fikrlar diqqatga molikdir. Tazkiranavis bu fazilatlarga ega bo'lish mashaqqati oddiy avomga emas, balki xoslarga tegishli ekaniga ishora qilgan. Ayonki, avom (عوام) so'zi – umum, omma, olamon; xalq; oddiy kishilar [1, 26], shuningdek, o'qimagan, tushunmagan, xat-savodsiz kishilar ma'nosini bildiradi [2, 178]. Xos

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

(خاص) kalimasi esa maxsus, alohida, mumtoz, eng yaqin; yuqori tabaqa singari qator mazmunlarga ega [3, 546].

Professor N.Komilov xoslarning mashaqqatli yo‘lini tasavvuf-u tariqat tushunchalari bilan bog‘laydi. Xoslarning fe‘l-atvoriga og‘ir vazminlik singib ketgan, ruhoniyyat bilan suhbat quradigan, kayhon-u falak asroridan mujda keltiradigan, faqrlikni ixtiyoriy ravishda bo‘yniga olib, tabiiy axloqni tark etib, ilohiy axloqni kasb etuvchi, ezgulik yo‘lida jonini fido qiluvchilar deya tavsiflaydi [4, 19-20].

“Nasoyim ul-muhabbat”da bu toifaning shug‘ullangan kasblariga alohida diqqat qaratilgan: “*Shayx Muhammad Sakkok q. s. kim, o‘z zamoni mashoyixining yagonasi ermish, pichoqchiliqqa mansubdur. Va Shayx Abu Hafz Haddod q. r. temirchilik qilibdur. Va Shayx Abubakr Xabboz q. s. o‘tmakchilikka mashhurdur...*” kabi. Buyuk mutafakkir bu bilan o‘z zamonasining xos kishilari ham hamma qatori mehnat bilan kun kechirganini ma‘lum qiladi. Ular moddiyatdan ko‘ngil uzgan, ammo zohidlarga mutlaqo o‘xshamas; zehn-u zakovat va aql-u farosati bilan atrofdagilarni hayratga solsa-da, lekin faylasuflar dunyosiga yot; shariat ilmidan boxabar, toat-u ibodatda mustahkam, ajoyib xislatli komil insonlardir.

Avom va xoslarning hayratiga doir izohlarni Navoiy Zunnun Misriy q.t.s. haqidagi hikoyatda keltiradi. Sharhlar, asosan, mutafakkir shoirning ustozini Shayx ul-islom Hazrat Xoja Abdulloh Ansoriyga tegishlidir: “*Hayrat ikkidur: biri om hayrati va ul ilhod-u zalolat hayratidur va yana biri xos hayratidur va ul hayrat ayondadur va topmoqdur va ham oning so‘zidurkim, avval uzulmak va qo‘shulmoq va oxir ne uzulmak va ne qo‘shulmoq...*” Bu fikrlarga Zunnunning Mag‘ribdagi sayohatidan olgan taassurotlari-yu xulosalari bir qadar oydinlik kiritadi: “*...uch safar qildim va uch ilm keturdum. Avvalqi safarda ilme keturdumkim, xos qabul qildi va om ham qabul qildi. Ikkinchi safarda ilme keturdumkim, xos qabul qildi va om qabul qilmadi. Va uchunchi safarda ilme keturdumkim, ne xos qabul qildi va ne om* فقيت شريدا طريدا وحيدا *“qochoq, quvg‘in va yolg‘iz bo‘lib goldim”* [5, 30].

Demak, Zunnuning ilk ilmi tavba bo‘lib, uni xos-u avom birday qabul qilgan. Ikkinchisi, tavakkul, muomalat va muhabbat ilmi ediki, buni faqat xoslargina anglay oldi. Nihoyat uchinchi ilm – haqiqat bo‘ldi, ammo uni qabul qilmoqqa na el, na ilm ahlining toqati yetdi. Ya‘ni xaloyiq Zunnuni anglamoqqa ojizlik qildi, alal-oqibat u hammadan ayrilib, quvg‘indiga aylandi. Hikoyatda Zunnun Misriy sayr-u sayohat bilan umr o‘tkazgan, foniyy dunyo ne‘matlaridan kechgan, Haq baqosida o‘zligini topgan, zohiran banda-yu, botinida ruhan ozod bir shaxs – hurriyat kishisi sifatida tasvirlanadi. Bu zot tavbasi, tavakkuli, muhabbati-yu amallari bilan odamlardan ajralib turgan. Biroq Haq yo‘lini tutgan solik ma‘lum bir bosqichlardan o‘tib, yuksak

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

darajotga yetganda, uni Haqdan o‘zga hech kimsa qabul qilolmasligiga ishoratni hikoyat mazmunidan anglash mumkin.

Asarda Fuzayl b. Iyoz q.t.r. va Ma’ruf Karxiy q.s. bilan bog‘liq ikki ibratli hikoyatda ilohiy ishq mohiyati ancha keng yoritilgan. *Xosning Haqqa muhabbatida tama’ va riyo yo‘q, muhabbatiga sadoqati Allohga itoatida bilinadi, chunki muhib (sevuvchi) tabiatiga ko‘ra mahbubiga itoatkor bo‘ladi*, degan fikrni Fuzayl b. Iyoz ilgari surgan. Mazkur hikoyat mazmunidan anglashiladiki, bu zotning bir o‘g‘li bo‘lgan “...va u andin martabada ulug‘roq erdi, oti Ali. Bir kun Masjidi Haramda Zamzam yaqinida bir xonanda o‘qudikim, (60: زمر) وَكَرَى الْمُجْرِمِينَ “gunohkorlarni ko‘rasan...” [5, 35-36]. Shu gapni eshitgani hamon Fuzayl b. Iyozning o‘g‘li bir titroqda jon beradi. Keyingi hikoyatda Ma’ruf Karxiyning muhabbat ilmi faqat xoslarga tegishli degan fikri diqqatga sazovor: “...Muhabbat – xalq o‘rgatadigan narsa emas, balki u Haqning in‘omi va fazlidir...”

Yahyo b. Mu‘oz Roziy q.t.r. zohidlarni – dunyo g‘urabosi, oriflarni – oxirat g‘urabosi deb atagan. Uning nazdida muhabbat “*lutf bila ortmag‘ay va jafu bila o‘ksomag‘ay*”. Ya’ni riyozat chekmasdan Haqqa yetish imkonsiz. Alloh huzurida eng oliy sharafga erishmoqchi bo‘lganlarga bu foniyl olamda yetti holdan yetti holni tilash, ya’ni g‘aniylikda faqirlikni, to‘qlikda ochlikni, baland darajada siniqlikni, ulug‘likda xorlikni, manmanlikda tavozu’ni, shodlikda g‘urbatni, hayotda o‘limni ixtiyor qilish zaruriyati – dunyoni bilishu Haqni tanish asosiy maqsaddir. Abu Muzohim Sheroziy q.r.ga ko‘ra: “...kimki o‘zining nazarida xor ko‘rinsa, Alloh-u taolo uning darajasini baland qiladi va kimki, o‘ziga ulug‘ ko‘rinsa, Alloh-u taolo uni bandalarning nazarida xor qilib ko‘rsatadi...” [5, 68].

Asardagi 37-hikoyatda elning fe‘l-atvori haqida so‘zlagan Shaqiq b. Ibrohim Balxiy q.s. avomni olovga qiyoslaydi. “...odamlar bilan olovga muomala qilgandek munosabatda bo‘l! Foydalaridan bahramand bo‘lgin-u kuydirishlaridan ehtiyot bo‘l!” [5, 44]. Eldan butkul uzilish yoxud ularning hayotiga tamoman singib ketish – solik va oriflar nazdida Haqdan olislashishdir. Abu Turob Naxshabiy q.t.s. shunday deydi: “*Qachonki, sizlardan biringizga ketma-ket ne‘matlar etsa, o‘z holiga yig‘lasin. Shubhasiz, u solihlar yo‘lidan emas, o‘zga yo‘ldan yuribdi...*” [9, 105].

Tazkiradan ma’lum bo‘lishicha, xalq aziz-avliyolarni alohida e’zozlagan. Ularning so‘zi-yu harakati, axloqi hammaga ibrat qilib ko‘rsatilgan. Xos zotlar fikrlarining zamirida asosan nafsni tarbiyalashu gunoh ishlardan tiyilishga undovchi ezgu maqsadlar yotadi. Aytish joizki, Navoiy ulug‘ shayx Abdulla Ansoriyning so‘zlaridan kamolotga eltuvchi yo‘lning mohiyatini ochib berishda mohirlik bilan foydalangan. Nafs tarbiyatida Hazrat Xoja Abdulloh Ansoriy shunday deydi: “...nafsingni mashg‘ul

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

qil andin burunki, ul seni shug‘lg‘a solg‘ay!” Zero, xoslarga ko‘ra, bu dunyoda nafs ustidan g‘alaba haqiqiy muzaffariyatdir.

Umuman olganda, tazkiradagi har bir hikoyatda Allohni jon-dildan sevish, Uning zoti va sifatlarini tanish, ko‘ngilni nafsu hirs g‘uboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga yetishish va bundan lazzatlanish kabi fikr-tuyg‘ular keng ifoda topgan. Xoslar yo‘li pok ishq mazhabidagi har qanday mashaqqatga bardosh bera olgan metin irodali zotlarga nasib qiladi. Tazkiradagi hikoyatlar esa “avom”, “xos”, “xaloyiq” tushunchalariga yanada oydinlik kiritgan. Bu hikoyatlarni teran tushunish va tadqiq qilish nafaqat Sharq adabiyotining o‘ziga xos an‘analarini, balki ulug‘ mutafakkir shoir Alisher Navoiyning ma’naviy olami, dunyoqarashiga xos muhim jihatlarni ham kengroq mushohada qilishga imkon ochadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати (2-нашри). – Тошкент: Академнашр, 2023. – Б. 26.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2022. – B. 178.
3. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати (2-нашри). – Тошкент: Академнашр, 2023. – Б. 546.
4. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннаҳр-Ўзбекистон, 2009. – 19-20 б.
5. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 17-том. Тошкент: Фан, 470 бет.